

Jahon kimyo sanoati xabarлари: yil oxirigacha dunyoda metanol ishlab chiqarish 2-3 million tonnaga oshadi

// 04.11.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoati-xabarлари-yil-oxirigacha-dunyoda-metanol>



Argus xalqaro mustaqil narx agentligi metanolning global bozori bo'yicha tadqiqotlarini e'lon qildi. Hujjatda keltirilishicha, metanol bozorida 2024-yil uchun ko'rsatkichlar ancha ijobiy. Kompaniya yil oxiriga borib talab yiliga 2-3 million tonnaga oshib, yillik hisob-kitob 91,3 million tonnagacha yetishini prognoz qilmoqda. 2025-2026-yillarda yangi quvvatlar ishga tushirilishi hisobiga ishlab chiqarish hajmi ortadi.

Tadqiqotga ko'ra, Xitoyni hisobga olmaganda, 2020-yilda butun dunyoda metanolga bo'lgan talab 86,3 million tonnagacha qisqargan, 2021-yilda esa 87,8 million tonnaga yetgan. 2022-yilda ko'rsatkichlar yana millionga oshib, 88,8 million tonnani tashkil etgan. 2023-yilda ishlab chiqarish hajmi deyarli o'zgarmagan, 2024-yilda esa sezilarli darajada o'sgan.

Ma'lum bo'lishicha, talabning deyarli 50 foizi formaldegid, sirka kislotalari va MMA ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Taxminan 35 foizi oziq-ovqat va yoqilg'i ishlab chiqarishga sarflanadi. Qolgan 15 foizi MTO (methanol-to-olefins) sektorida ishlatiladi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati